

ICLHE INTEGRATIV TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM MODELINI LOYIHALASH

Kurbanova Husniya Shuhrat qizi
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Abstrakt. Ushbu tadqiqotda matematika talabalari leksik kompetensiyasini rivojlantirishda matematik o'ziga xosligi asosiy muammo sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda fan va til integratsiyasiga asoslangan ICLHE ta'lim modeli samarali metodik yechim sifatida asoslab beriladi.

Tayanch so'zlar: matematika, leksik kompetensiya, ICLHE yondashuvi

Abstract. This study analyzes the specific nature of mathematical language as a key challenge in developing the lexical competence of mathematics students. The ICLHE educational model, based on the integration of content and language, is substantiated as an effective methodological solution.

Keywords: mathematics, lexical competence, ICLHE approach

Аннотация. В данном исследовании специфические особенности математического языка рассматриваются как основная проблема при развитии лексической компетенции студентов-математиков. В качестве эффективного методического решения обосновывается образовательная модель ICLHE, основанная на интеграции содержания и языка.

Ключевые слова: математика, лексическая компетенция, подход ICLHE

Kirish

Bugungi kunda dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida fan va til integratsiyasi turli pedagogik modellarda samarali ravishda amaliyotga tatbiq etilmoqda. Xususan, University of Cambridge va University of Oxford kabi nufuzli universitetlarda akademik ingliz tili (EAP) kurslari mutaxassislik fanlari bilan uzviy integratsiyalashgan holda tashkil etiladi. Shu bilan birga, Yevropa oliy ta'lim tizimida, xususan, Gollandiya, Germaniya va Finlandiya tajribasida ingliz tilida o'qitiladigan ta'lim dasturlari keng joriy etilgan. Osiyo mamlakatlarida ham, jumladan, China va South Korea oliy ta'lim tizimida EMI (English as a Medium of Instruction) siyosati faol qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuv doirasida mutaxassislik fanlari bevosita ingliz tilida o'qitilib, talabalar tomonidan kasbiy bilimlar bilan bir qatorda akademik va kommunikativ kompetensiyalarni ham parallel ravishda rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

So'nggi yillarda Respublikamiz oliy ta'lim tizimida ham integratsiyalashgan ta'lim va mutaxassislik fanlarini chet tilida o'qitish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezidentning "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" kontsepsiyasi loyihasi [3], shuningdek, ushbu loyiha doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-iyundagi 362-sonli qarori orqali davlat budjeti moliyashtiradigan oliy ta'lim muassasalarida chet tilini B2 va undan yuqori darajada biladigan professor-o'qituvchilarga "Chet tilida maxsus fanlarni o'qitganligi uchun" bazaviy maoshning 25–100% gacha ustama to'lanishi belgilandi [4]. Mazkur chora-tadbirlar nafaqat professor-o'qituvchilarning malakasini rag'batlantirish, balki fan va til integratsiyasiga asoslangan ta'lim jarayonlarini

kengaytirish, ilmiy va akademik faoliyatni modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish hamda oliy ta'limni global standartlarga yaqinlashtirish imkonini yaratadi.

Asosiy qism

Chet tilini fan mazmuni bilan integratsiyalash g'oyasi, asosan, Yevropada ko'p tillilik siyosati (multilingual education) va fan bilimini til orqali chuqur o'zlashtirish zaruratidan kelib chiqqan. Integrativ ta'limning amaliy tadbiri, asosan, D. Marsh bilan bog'liq bo'lib, u boshlang'ich va o'rta ta'limda fan va tilni birlashtirishga qaratilgan CLIL (Content and Language Integrated Learning) konsepsiyasini ishlab chiqdi. 2003-yilda Yevropada o'tkazilgan Mاستrixt konferensiyasida ko'plab tadqiqotchilar va ta'lim institutlari tomonidan aynan oliy ta'limda til va kontentni integratsiya qilishga mo'ljallangan yondashuv sifatida CLIL o'rniga ICLHE (Integrating Content and Language in Higher education) atamasini qo'llash tavsiya etildi [7]. ICLHE yondashuvi ham CLIL singari til va mazmunni integratsiyalashgan holda o'qitish metodikasi bo'lib, unda ikki maqsad: talabaning kasbiy sohaga oid bilimini rivojlantirish (Content) va ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini (Language) shakllantirishni maqsad qiladi. Biroq, oliy ta'limda kontent va tilni integratsiyalash boshlang'ich va o'rta umumta'limdan farq qilib akademik fanlarni xorijiy tilda o'qitish amaliyotini nazarda tutadi. ICLHE uyushmasi tomonidan keltirilgan manbalarga qaraganda, yondashuvni turlicha talaffuz qilish mumkin. Ba'zilar uni harfma-harf qisqartma akronim "I [ai], C [si], L [el], H[etf], E [i]" sifatida, boshqa bir guruh uyushma a'zolari qisqartirib /a'ikle/, /iklhi:/, yoki /a'ikli:/ shaklida talaffuz qilishadi [8].

ICLHE yondashuvi ayrim tadqiqotchilar tomonidan EMI (English as a Means of Instruction) ya'ni "Ingliz tili ta'lim vositasi sifatidagi yondashuv" deb ham qabul qilinadi [1]. EMI va ICLHE yondashuvlarining ikkisi ham ta'limni ingliz tilida tashkil etishi jihatidan o'xshaydi, biroq EMI da asosiy e'tibor kontentga qaratiladi, ingliz tili faqat ta'lim vositasi hisoblanadi [7]


Integrativ ta'limda asosiy e'tibor fan mazmunini chuqur anglashga qaratilgan bo'lsa-da, bu jarayon talabalarning til ko'nikmalarining yashirin (implicit) tarzda rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Xususan, lug'at o'rganish jarayoni nuqtayi nazaridan qaralganda, leksik birliklar ko'pincha "incidental", ya'ni tabiiy va kontekstual sharoitda, maxsus maqsadsiz o'zlashtiriladi. S. Jaikrishnan va H. Ismail o'z tadqiqotlarida "incidental" o'rganish tushunchasini quyidagicha tasvirlaydi "mazmunni tushunish jarayonida, so'zlarni bevosita ongsiz, tabiiy tarzda o'zlashtirish". Ayni paytda, integrativ ta'lim chet tilini o'rganishda nafaqat tabiiy va kontekstual muhit yaratish, balki talabalarda lug'at o'rganishga nisbatan motivatsiya uyg'otish imkonini beradi. Ushbu motivatsiya tilni mazmunli va maqsadga muvofiq qo'llashga olib keladi, chunki an'anaviy chet tili darslaridagi mashg'ulotlar ko'pincha zerikarli, notabiiy va ahamiyatsiz qabul qilinadi. Integrativ paradigmaning shakllanishiga qadar leksik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar asosan bosqichma-bosqich o'zlashtirish modeliga tayanib kelgan. Mazkur modelga ko'ra, leksik birliklarning o'rganilishi avval formal anglash, keyin mashq qilish va nihoyat nutq jarayonida qo'llash orqali asta-sekin rivojlanadi. Xususan, I. Passov leksik kompetensiyani dinamik tizim sifatida sharhlab, uning shakllanish mexanizmini uch asosiy bosqichda ko'rsatadi: 1) so'zning formasi va semantik mazmuni bilan dastlabki tanishuv; 2) kontekst ichida qo'llanish va kombinator imkoniyatlarini o'zlashtirish; 3) kommunikativ vaziyatlarda mazmun va muloqot maqsadiga mos holda erkin qo'llash [5]. Ushbu yondashuvni o'zbek olimi, professor J. Jalolov ham qo'llab-quvvatlab, leksik

malakalarni shakllantirish jarayonini “Presentation – Exercise – Usage” modeli asosida izohlaydi. Uning ta’kidlashicha, yangi so’z dastlab taqdim etiladi, so’ng turli mashqlar orqali faol aylanma xotiraga kiritiladi va nihoyat real nutq faoliyatida muntazam qo’llanish jarayonida avtomatlashadi [2].

Ammo, mazmun integratsiyalashgan ta’lim modellarida leksik kompetensiya til va mazmunning bir vaqtning o’zida o’zaro ta’siri orqali shakllanadi. Ya’ni, leksika izolyatsiyada emas, fan mazmuni, kognitiv faoliyat va real kommunikativ vazifalar bilan integratsiyalangan holda rivojlanadi. Integrativ ta’lim muhitida leksik kompetensiyaning rivoji endi bosqichli emas, balki kontentga asoslangan integratsion jarayon sifatida qaraladi.

Mazkur tadqiqot doirasida ICLHE integrativ ta’lim modeli asosida matematika yo’nalishi talabalarining ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan o’quv modeli ishlab chiqildi. Model bir nechta tarkibiy qismlardan tashkil topgan, bular: modelning maqsadi va vazifalari, mazmun bloki, metodik qism va natijalar bloki (1-rasmga qarang).

1-rasm. Ta’lim modeli



Mazkur modelning asosiy maqsadi matematika ta’lim yo’nalishi talabalarining

ingliz tilidagi kasbiy yo'naltirilgan leksik kompetensiyasini ICLHE (Integrated Content and Language in Higher Education) asosidagi integrativ ta'lim muhiti orqali tizimli ravishda rivojlantirishdan iborat. Modelni amalga oshirish quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi: leksik kompetensiya tushunchasini zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlar asosida qayta talqin qilish; leksik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida integrativ metodlarning didaktik imkoniyatlarini aniqlash va amaliyotga tatbiq etish; matematik diskursda qo'llaniluvchi leksik birliklarning tarkibi va funksional xususiyatlarini tahlil qilish; matematik leksikani o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan tipik qiyinchiliklarni aniqlash; an'anaviy o'qitish usullarining samaradorligini tahlil qilish va ularni integrativ yondashuv asosida takomillashtirish.

Mazmun qismi matematik diskursga xos leksik birliklarning quyidagi turlarini o'z ichiga oladi: terminologik birliklar (texnik atamalar), akademik leksika; umumadabiy leksika; diskursiv birikmalar (bog'lovchi va mantiqiy strukturalar); otlashgan birliklar (nominalizatsiya); matematik simvollar va belgilar tizimi. Ushbu komponentlar o'zaro bog'liq holda matematik matnni tushunish va ishlab chiqishda xizmat qiladi. Model doirasida o'quv materiali sifatida autentik matematik matnlarning quyidagi turlari tanlanadi: axborot beruvchi (ekspository) matnlar; matematik muammo va masalalarni tahlil qilishga yo'naltirilgan matnlar; tahliliy va refleksiv fikrlashni rivojlantiruvchi matnlar; kundalik kontekstga asoslangan amaliy yo'naltirilgan matnlar.

Metodik blok talabalarning matematik leksikani o'zlashtirish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan integrativ, kontekstual va kommunikativ yondashuvlardan iborat.

Integrativ yondashuvning nazariy asoslari bloki ICLHE yondashuvi – fan va tilning o'zaro integratsiyasi orqali o'qitish; fan va til integratsiyasi prinsipi – kontent va lingvistik kompetensiyaning parallel rivojlanishi; akademik maqsadda leksikani rivojlantirish konsepsiyasi – kasbiy va akademik diskurs doirasida til birliklarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan yondashuv.

Xulosa. Matematik leksikaning o'ziga xos xususiyatlari, xususan uning yuqori darajadagi abstraktligi, umumlashganligi va kontekstdan tashqarida murakkab idrok etilishi talabalardan nafaqat lingvistik, balki chuqur kognitiv tayyorgarlikni ham talab qiladi. fan va tilning uzviy uyg'unligiga asoslangan integrallashgan ta'lim muhiti, xususan ICLHE yondashuvi, matematik leksikani o'zlashtirishda eng maqbul va samarali yechim sifatida namoyon bo'ladi.

Amaliy tavsiyalar. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun umumiy o'rta ta'limda qo'llaniladigan CLIL yondashuvidan farqli ravishda, oliy ta'lim bosqichida ingliz tilini muayyan kasbiy va akademik maqsadlar asosida o'qitishga yo'naltirilgan ICLHE ta'lim modelini joriy etish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Doiz A., Lasagabaster D., Sierra J. M. English as L3 at a Bilingual University in the Basque Country, Spain // English Medium Instruction at Universities. Global Challenges. — Bristol: Multilingual Matters, 2013. — P. 84–100.
2. Jalolov J. J. Chet tillarni o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. — Toshkent: TDPU, 2012. — 180 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni // <https://lex.uz/docs/4545884>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2025-yil 12-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida chet tilida maxsus fanlarni o'qitganligi uchun bazaviy maoshning 25–100% gacha ustama to'lanishini belgilash to'g'risida"gi 362-son qarori // <https://lex.uz/docs/>
5. Пассов И. И. Современные методы обучения лексике иностранного языка: монография. — Минск: БГУ, 2000. — 220 с.
6. Valcke J., Wilkinson R. Introduction – ICLHE, Professional Practice, Disruption, and Quality // Integrating Content and Language in Higher Education: Perspectives on Professional Practice / ed. by J. Valcke, R. Wilkinson. — Frankfurt am Main: Peter Lang Edition, 2017. — P. 15–24.
7. Wilkinson R. Integrating Content and Language: Meeting the Challenge of a Multilingual Higher Education: Proceedings of the ICL Conference, Maastricht, October 23–25, 2003. — Maastricht: John Benjamins / ICL, 2004. — 372 p.
8. ICLHE official website — Available at: <https://www.iclhe.org/>